XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-131-11-154-K/25 Buvayda tumani

Buvayda tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg`ona viloyat Kengashining 2025 yil 29- dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Farg`ona viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10002-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalari muvofiq xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg`ona viloyat Kengashining 2025 yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Buvayda tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **154.3 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **154.3 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi Buvayda tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **739.0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari ***1-ilovaga*** muvofiq;

tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari ***2-ilovaga*** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 151.4 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar ***3-ilovaga***;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar ***4-ilovaga***;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari miqdorlar ***5-ilovaga***;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkasi to‘g‘risida miqdorlar ***6-ilovaga***;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari miqdorlari quyidagi ***7-ilovaga*** muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo`limi boshlig`i (D.Maxsitaliev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig`ining birinchi o`rinbosari (A.Ergashev), tuman Soliq inspeksiyasi (M.Roziqov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy isloxatlar bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Z.Mamajonov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Maxsitaliyev)lar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **IBRAGIMOV BEXZOD ODILJONOVICH**

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Buvayda tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Buvayda tumani
	JAMI	**154 338 500**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4 475 000
2	Foyda solig‘i	12 745 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	9 485 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	55 189 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 693 000
	Aksiz solig‘i jami	3 977 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*3 977 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 740 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	16 571 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 747 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 305 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 582 000
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	2 320 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-928 000
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	5 260 100
15	Yig‘imlar	849 400
16	Jarimalar	2 586 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	134 000

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Buvayda tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

	Xarajatlar - jami	**154 338 500,0**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar**	**80 125 044,0**
1.1	**Ta’lim sohasi**	**70 332 766,0**
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	38 811 911,0
	Umumta’lim maktablari	13 391 559,0
	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	8 397 493,0
	Tuman Barkamol avlod bolalar maktabi	2 513 307,0
	Tuman Bolalar musiqa va san’at maktabi	3 881 296,0
	"Mening maktabim" loyihasi	3 337 200,0
1.2	**Madaniyat sohasi**	**2 938 000,0**
	Tuman Madaniyat bo‘limi	2 096 000,0
	Tuman Axborot kutubxona markazi	842 000,0
1.3	**Sport sohasi**	**6 709 426,0**
	Tuman Sport maktabi	6 709 426,0
1.4	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	144 852,0
2.	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**19 834 786,0**
2.1	Obodonlashtirish	9 417 397,0
2.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 570 294,0
2.3	Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	2 906 347,0
2.4	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	440 898,0

2.5	Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi	426 356,0
2.6	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi	2 073 494,0
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	**27 169 782,0**
3.1	Tuman hokimligi	6 032 656,0
3.2	Xalq qabulxonasi	121 605,0
3.3	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 266 499,0
3.4	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	6 081 415,0
3.5	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 632 533,0
3.6	Madaniyat bo‘limi (apparat)	128 860,0
3.7	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi	1 612 411,0
3.8	Yoshlar ishlari agentligi tuman (shahar) bo‘limi	6 377 677,0
3.9	Veterinariya bo‘limi	1 916 126,0
4.	**Zaxira jamg‘armasi**	**2 151 448,0**
5.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**25 057 440,0**
6.	**Boshqa xarajatlar**	

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFYlar nomi	2026-yil uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i
1	Jiydali	1,15	47 524,0
2	Qo‘rg‘oncha	1,15	47 524,0
3	Yangiqishloq	1,15	47 524,0
4	Jaloyer	1,15	47 524,0
5	Yangiqo‘rg‘on	1,15	47 524,0
6	Dodxo	1,15	47 524,0
7	Ing‘irchoq	1,15	47 524,0
8	Beglar	1,15	47 524,0
9	Maslaxat	1,15	47 524,0
10	Yashnarobod	1,15	47 524,0
11	Qo‘ng‘irot	1,15	47 524,0
12	Tuman	1,15	47 524,0
13	O‘rta Qo‘ng‘irot	1,15	47 524,0
14	Cho‘mbog‘ish	1,15	47 524,0
15	Dehqonobod	1,15	47 524,0
16	Tarrachi	1,05	43 391,0
17	Sho`r	1,15	47 524,0
18	Oyim qishloq	1,15	47 524,0
19	Qoratepa	1,15	47 524,0
20	Bachqir	1,05	43 391,0
21	Begabod	1,05	43 391,0
22	Pishag`ar	1,05	43 391,0
23	Poshshopirim	1,05	43 391,0
24	Hasanqo`rg`oncha	1,05	43 391,0
25	Oltinqo‘rg`on	1,05	43 391,0

26	Qoraqum	1,05	43 391,0
27	Oqqo‘rg‘on	1,05	43 391,0
28	Yuqori Mang‘it	1,05	43 391,0
29	Jov	1,05	43 391,0
30	Cho‘taka	1,05	43 391,0
31	Nayman	1,05	43 391,0
32	Tepalik	1,05	43 391,0
33	Buvayda	1,15	47 524,0
34	Elobod	1,15	47 524,0
35	Buvimozor	1,15	47 524,0
36	Tog`lik	1,15	47 524,0
37	Ozod	1,15	47 524,0
38	Qilovtepa	1,15	47 524,0
39	Xo`jaobod	0,95	39 259,0
40	Xakimto‘ra	0,95	39 259,0
41	Urganji	0,95	39 259,0
42	Qum	0,95	39 259,0
43	Beshterak	0,95	39 259,0
44	Shodlik	0,95	39 259,0
45	Arab	0,95	39 259,0
46	Turk	0,95	39 259,0
47	Sho`r qishloq	0,95	39 259,0
48	Yangi hayot	0,95	39 259,0
49	Qo‘rg‘onobod	0,95	39 259,0
50	Ponsod	0,95	39 259,0
51	Oqtepa	0,95	39 259,0
52	Yangiqadam	0,95	39 259,0
53	Uzumzor	0,95	39 259,0

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFYlar nomi	2026-yil uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i
1	Jiydali	1,15	451,0
2	Qo‘rg‘oncha	1,15	451,0
3	Yangiqishloq	1,15	451,0
4	Jaloyer	1,15	451,0
5	Yangiqo‘rg‘on	1,15	451,0
6	Dodxo	1,15	451,0
7	Ing‘irchoq	1,15	451,0
8	Beglar	1,15	451,0
9	Maslaxat	1,15	451,0
10	Yashnarobod	1,15	451,0
11	Qo‘ng‘irot	1,15	451,0
12	Tuman	1,15	451,0
13	O‘rta Qo‘ng‘irot	1,15	451,0
14	Cho‘mbog‘ish	1,15	451,0
15	Dehqonobod	1,15	451,0
16	Tarrachi	1,05	412,0
17	Sho`r	1,15	451,0
18	Oyim qishloq	1,15	451,0
19	Qoratepa	1,15	451,0
20	Bachqir	1,05	412,0
21	Begabod	1,05	412,0
22	Pishag`ar	1,05	412,0
23	Poshshopirim	1,05	412,0
24	Hasanqo`rg`oncha	1,05	412,0

25	Oltinqo‘rg`on	1,05	412,0
26	Qoraqum	1,05	412,0
27	Oqqo‘rg‘on	1,05	412,0
28	Yuqori Mang‘it	1,05	412,0
29	Jov	1,05	412,0
30	Cho‘taka	1,05	412,0
31	Nayman	1,05	412,0
32	Tepalik	1,05	412,0
33	Buvayda	1,15	451,0
34	Elobod	1,15	451,0
35	Buvimozor	1,15	451,0
36	Tog`lik	1,15	451,0
37	Ozod	1,15	451,0
38	Qilovtepa	1,15	451,0
39	Xo`jaobod	0,95	372,0
40	Xakimto‘ra	0,95	372,0
41	Urganji	0,95	372,0
42	Qum	0,95	372,0
43	Beshterak	0,95	372,0
44	Shodlik	0,95	372,0
45	Arab	0,95	372,0
46	Turk	0,95	372,0
47	Sho`r qishloq	0,95	372,0
48	Yangi hayot	0,95	372,0
49	Qo‘rg‘onobod	0,95	372,0
50	Ponsod	0,95	372,0
51	Oqtepa	0,95	372,0
52	Yangiqadam	0,95	372,0
53	Uzumzor	0,95	372,0

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi

T/r	Hududlar	qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi		G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
		Koeffitsient	Mutloq qiymat	Koeffitsient	Mutloq qiymat
1	Buvayda tumani	1,05	5 618,0	1,05	5 190,0

Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Buvayda tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkasi to‘g‘risida

so`mda

T/r	Hududlar	2026-yil uchun							
		Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti					
		Koeffitsient	Stavka	Koeffitsient	Stavka	Koeffitsient	Stavka	Koeffitsient	Stavka
1	Buvayda tumani	1,12	839,0	1,12	1 019,0	1,07	43 506,0	1,12	17 976,0

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-131-11-154-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kvadrat metri uchun eng kam stavkalari

so`mda

№	Hudud nomi	2026-yil uchun			
		1 m.kv turar joylar uchun		1 m.kv noturar joylar uchun	
		Koeffitsient	Yakuniy stavkasi	Koeffitsient	Yakuniy stavkasi
1	Buvayda tumani	1,05	6 195,00	1,05	12 390,0